

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA HURMAT MA’NOSINI IFODALOVCHI VOSITALARNING QO‘LLANISHI

Qodirova Marg‘uba Bo‘riyevna

“O‘zbek va jahon filologiyasi”

kafedra o‘qituvchisi

O‘zbekiston davlat san’at

va madaniyat instituti

Anotatsiya:

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida hurmat ma’nosini ifodalovchi vositalarning xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, bu tillarda hurmat ma’nosini ifodalovchi vositalarni tahlil etishda ushbu tilda mavjud, murakkab jarayon hisoblanmish hurmat ma’nosining mavjud yoki mavjud emasligi, uning o‘rni, tarjima hodisasi, shuningdek, muloqot ob’yekti ekanligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Hurmat, xulq, ahloqiy fikrlash, qadriyatlar, izzat-nafs, insoniy fazilatlar, adolatparvarlik, insonparvarlik, tarbiya, andisha, salomlashish odobi, hikmatli so‘zlar.

THE USE OF THE MEANING OF RESPECT IN UZBEKI AND ENGLISH LANGUAGES.

Kadirova Marguba Buriyevna

"Uzbek and world philology"

teacher of the department

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Annotation

This article discusses the features of the means of expressing respect in the Uzbek and English language. It also examines the views and opinions of Uzbek and English scholars and researchers on the means of expressing the meaning of respect in the Uzbek language, the phenomenon of translation, as well as the object of communication.

Key words: respect, behavior, ethical thinking, values, dignity, human qualities, justice, humanity, upbringing, thoughtfulness, greeting etiquette, words of wisdom



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalar tilning turli sathlarida uchraydi. Shuningdek, hurmat ma'nosi sintaktik-stilistik tomondan ham ifodalanishi mumkin. Matnni tahlil qilish jarayonida o'zbek tilida mavjud bo'lgan ko'plab morfologik, grammatik vositalar bilan bir qatorda so'z birikmalari, sodda va murakkab gap tuzilmalari– frazeologik vositalar, xalq hikmatlari nutqda hurmat– ehtiromni ifodalashda keng qo'llaniladi. Hurmat kategoriyasi milliy mentalitetning o'ziga xos dolzarbligini yaqqol ko'rsatadi.

Bir butun sistema hisoblangan hurmat ifodalovchi vositalar kishilar o'rtasida o'zaro muloqot jarayonlarini lingvistik va nolingvistik formalarda o'z ichiga oladi. Lingvistik va nolingvistik formalardagi hurmat, ehtirom faqatgina kichiklarning kattalarga, jamiyatdagi o'rni, lavozimi yuqori bo'lgan insonlargagina munosabati bo'lib qolmasdan, kattalarning kichiklarga, jamiyatdagi o'rni yoki mansabi o'zidan quyi shaxslarga munosabatini ham aks ettiradi. Shu singari, hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalarni o'rganish– tilshunoslik, madaniyat, tarix va jamiyatni birgalikda tadqiq etish hisoblanadi. Bu munosabatlar lingvistik, paralingvistik formalarda yuzaga keladi. Bunday formalar o'z ichida yana muayyan xususiyatiga ko'ra bo'limlarga ajraladi. Lingvistik formadagi hurmat deganda morfologik, leksik va sintaktik–stilistik shakllar nazarda tutiladi.

Hurmat ma'nosini ifodalovchi vositalar orqali fikr lo'nda, aniq va obrazli qilib ifodalashda qo'llaniladi, nutqimizga mazmuniy go'zallik, o'ziga xos jilo bag'ishlaydi. Binobarin, xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribali hayotida juda ham ko'p marta tasdiqlanib kelgan ibratli fikrlar o'zbek xalq maqollarida xalqning turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, insonning mehnatga, insonning insonga munosabati to'liq ifodalashini ko'rish mumkin. Jumladan:

1. Avval salom, bad'az kalom.
2. Kattaga hurmatda bo'l,
Kichikka – izzatda.
3. Kattaning hurmati –qarz,
Kichikka salom – farz.
4. Ustozingga tik qarasang, to'zasan,
Hurmat qilsang, asta-sekin o'zasan.
5. Urug'ingga so'z aytsang,
Orasini uzib ayt.
6. Otang ishga buyursa,
Namozingni buzib ayt.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

7. Hurmat talab qilinmaydi, unga erishiladi.

Xalq donishmandligi– maqollar xalqlarning ko‘p asrlik hayotiy kuzatishlari, turmush tajribalari asosida yuzaga keladi. Chunki xalq maqollari katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynidagi tajribalarida va kundalik turmushda necha martalab sinovdan o‘tadi.

Maqol va matallar tahlil qilinsa, ikki vaziyat ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, hurmat tushunchasiga bevosita aloqador maqol va matallar, ikkinchidan hurmatga bilvosita bog‘liq bo‘lgan maqol va matallardir. Masalan, “Otalarni so‘zi–aqlning ko‘zi” iborasi otalarni tajribali, oq-qorani tanigan, ko‘p narsani biluvchi shaxslar deya baholaydi va ularning fikrlariga quloq solish muhimligini ta’kidlaydi.

Chiroyli gapirish madaniyati tarbiyasi oilada boshlanadi. Aslida, oiladagi nutqiy tarbiya–juda murakkab jarayon, uni ijobiy hal etishda, ya’ni oila a’zolari nutqining kelajak shakllanishida oila boshliqlarining nutqiy madaniyati, didi, saviyasi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Murakkab nuqtalaridan biri– er va xotinning bir–biriga murojaat qilishida hozirgacha tomonlarni to‘la qanoatlantiradigan, qulaylik tug‘diradigan atamalar tanlanmaganligi va uslubshunoslar tomonidan tavsiyalar berilmaganligida. Shunday bo‘lsa–da, oilaviy munosabatlarda er–xotin farzandli bo‘lgunlariga qadar “begim”, “bekam”, farzand ko‘rganlaridan keyin esa III shaxs birlikda egalik qo‘shimchasi bilan kelgan “dadasi”, “oyisi” kabi murojaat shakllaridan foydalanishadi.

Er ham xotinini ismi bilan chaqirmaydi. Ismining o‘rnida er “onasi”, “ayolim”, “jufti halolim”, “bekam”, “oyisi” kabi, xotin esa “dadasi”, “xo‘jayin”, “begim”, “Siz”, “O‘zlari” singari gender evfemalardan foydalanishi – madaniyatning yuqori ko‘rinishlaridan biri. Olim A.Omonturdiyev er–xotin farzandlarining nomi bilan atalishini ham evfemalashtirishning bir ko‘rinishi sifatida baholaydi. Bu vaziyatni ham o‘zbek oilalarida ko‘p uchratish mumkin. Shu singari gender evfemalar orqali o‘zbek xalqida oilaning o‘rni juda muhimligi, er–xotinning bir–biriga cheksiz hurmati, hech qaysi millatga o‘xshash bo‘lmagan murojaat usullari bo‘y–basti bilan namoyon bo‘ladi.

Demak, tushunchalar, jumladan, murojaat atamalarining yuqoridagidek tabulashish va evfemalashish jarayonlari nutqning etik–estetik, ya’ni uzoq davom etib kelayotgan muayyan udum, rasm–rusum, axloq–odob talabi asosida yuz beradi.

O‘zbek madaniyatiga muvofiq kelin to‘y kuni va to‘ydan keyin ham bir muddat mexmonlarga hurmat yuzasidan ikki bukilib, ta’zim qilib salom beradi va egilib choy uzatishadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bu ham hurmatning o‘ziga xos bir ko‘rinishi bo‘lib, kelinning ziynatidir. Turmush qurish arafasida turgan qizlarga nuroniy buvilarimiz kuyov tarafdagilarning yoshu-qarisini birdek hurmatda bo‘lish kerakligi haqida uqtirishadi.

O‘zbek tilida keng tarqalgan hurmat kategoriyasi “-lar” affiksi hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek tilida “-lar” ko‘plik ifodalovchi affiks sifatida son kategoriyasining birlik formasiga qarama-qarshi bo‘lgan ko‘plik formasini (kategorial formani) yasaydi. Hurmat ifodalovchi affiks sifatida esa funksional formani hosil qiladi. Hurmat formasi deb odatda qarindoshlik bildiruvchi ot negizlariga son kategoriyasi formasi bilan kelishik kategoriyasi formasi oralig‘ida egalik affiksi bilan birgalikda qo‘shilib keluvchi “-lar” affiksini tushunamiz va murojaat etilayotganda so‘zga “-lar” affiksi qo‘shib murojaat etiladi.

Katta va kichiklarga murojaat etganda hurmat va erkalash ma’nosida -xon, -jon, -bek, -boy, -oy, -xo‘ja, -bonu kabi lug‘aviy shakllar ismlarga qo‘shib qo‘llaniladi.

Tushlarimda, mayli, boshim

Silab turgin, onajon.

Qolganlarga endi umr

Tilab turgin, onajon. (“Onajon” Abdulla Oripov.)

O‘zbek tilida so‘zlovchining yoshi kichik bo‘lsa, unga “siz”(Yaxshimisiz?, ko‘rinmaysiz?) deb murojaat etiladi.

Hozirgi o‘zbek tilida siz olmoshi asli tinglovchi ko‘pligini (2- shaxs ko‘plik olmoshi) ifodalaydi. Biroq yoshi katta yoki, martabasi ulug‘, hurmati bor kishilarga ham sen o‘rniga siz deb murojaat qilinadi.

Nutq jarayonida hurmat shu qadar kuchliki, hatto hurmatga sazovor kishining ish-harakati va holatiga, unga tegishli narsalarga ham hurmatni bildiruvchi qo‘shimcha qo‘shib so‘zlanadi. Masalan: “Dadajon, ovqatingizni yeb oling” gapini olaylik. Ovqat so‘zi otaga tegishli, shuning uchun unga hurmatni bildiruvchi -ingiz qo‘shimchasini qo‘shib ovqatingiz deyiladi. Keyingi yeb oling- fe’li ham otaga qarashli, shuning uchun u ham hurmat shaklida ifodalangan.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, ota-bobolarimizning aksariyat qismi o‘z ayollariniga “sizlab” munosabatda bo‘lishgan, bu ham bo‘lsa hurmatning bir timsoli, tarbiyaning esa natijasi hisoblanadi.

Otabek: –Kim yig‘latdi sizni?

Kumush: – Yig‘labmanmi?

Otabek: – Ko‘zingiz, kiprikingiz.....



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ingliz tilida esa asosan murojaatning “sen” shakli qo‘llaniladi. Qarindoshlar, ota-ona, aka-uka, bobo-buvilar o‘rtasidagi muloqotda ham o‘zbek tilidagi singari yosh va jinsga ahamiyat berilmaydi va faqatgina “sen”dan foydalaniladi.

Yevropa madaniyatida o‘zbek madaniyatiga nisbatan er-xotinning bir-biriga “senlab” gapirishi me‘yoriy o‘ziga xos holat hisoblanadi. Bu esa ularning bir-biriga bo‘lgan samimiy munosabatining yanada yaqinroq ekanligidan dalolat beradi:

“John, are you coming?” asked his wife. (Jon, kelayapsanmi? –So‘radi turmush o‘rtog‘i).

You’re not an artist, then, she said in a tone that placed him as an outsider. (Demak, sen rassom emassan. – dedi u uni begonadek ko‘rsatgan ohangda).

How do you do, Hermione/ I was sketching.(Qandaysan, Germiona. Men eskiz chizayotgan edim).

Yozuvchi Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasida hurmat kategoriyasi quyidagicha ifodalangan:

Farmonbibi: – Mana shular mening o‘g‘illarim

O‘g‘illar: – Assalomu alaykum!

Farmonbibi: – Hammasi meni hurmat qilishadi. Hozir so‘rayman. Bolajonlarim!

O‘g‘illar (qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib): – Labbay, oyijon?

Ushbu asar parchasida o‘g‘illarning “Labbay, oyijon?” jumlasini hurmat ma‘nosini ifodalagan.

Xalqimizning eng yuksak madaniyatlaridan biri bo‘lgan, ota-onaning ko‘ziga tik boqmaslik, ulardan oldin gapirmaslik va har qanday ishni ularning ruxsatsiz bajarmaslik tahsinga sazovordir.

Adibimiz Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridan misol keltirsak, bu asar nafaqat ikki inson sevgi taqdirini, balki xilma-xil insoniy taqdirilar, ma‘naviy-axloqiy o‘zbekona muomala, tarix, siyosat hurmat tuyg‘ulari bilan qalamga olingan.

Jumladan, Otabek hujrasiga kishilar kirib kelganda ularga qilingan mulozamatni yozuvchi shunday tasvirlaydi:

Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek kirgichilarini ulug‘lab qarshiladi.

–Bizni kechirasiz, bek aka, –deb Rahmat uzr aytdi, –vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.

Otabek ularga joy ko‘rsatar ekan, yoqimlik bir vaziyatda:

–Tinchsizlamadingizlar, bil’aks, quvontirdingizlar, –dedi.

Yoki Otabekning Hasanali bilan munosabatida Yoshi katta kishiga ko‘rsatiladigan hurmatning (garchi Hasanali qul bo‘lsa–da) yorqin namunasini ko‘rish mumkin:

–Ba’zi yumushlar buyursam....



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

–Buyuringiz, o‘g‘lim.

Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangiz–chi.

–Xo‘p, begim.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan bir qaytib sog‘liq so‘rashgandan keyin so‘radi:

–Bu kishi kimingiz bo‘ladilar, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalining hujradan uzoqlashib so‘ngra javob berdi:

–Qulimi.

Abdulla Qodiriy bu obrazlar orqali o‘zbek millatining turmushi, tarixi, tili va boy madaniyatini ko‘rsatgan. Badiiy merosda o‘zbek adabiy tilining go‘zalligi, nafosati, keng ma‘no va imkoniyatlari amaliyotda ko‘rsatib berilgan.

Ba‘zi o‘zbeklar chet el fuqarolari bilan muloqotga kirishganda ularning hurmat ifodasini yaxshi anglamagan holda xatoga yo‘l qo‘yib, suhbatdoshni hayron qoldirishlari va hatto xafa qilib qo‘yishlari mumkin. O‘zbeklar uchun so‘rashish, suhbatga kirishishning vositasi sanalgan, har ko‘rganda takrorlaydigan “Qalaysiz?” “Ahvolingiz qanday?” kabi so‘roqlar yoki “Turmushga chiqqanmisiz?”, “Oilalimisiz?”, “Necha yoshdasiz?”, “Farzandingiz bormi?” kabi savollar boshqa millat madaniyatida hurmatsizlikni ifodalaydi. Ba‘zi chet elliklar o‘zbeklar tomonidan keltirilgan maqtovlarni inkor qilaverishi mumkin. Masalan: “Bugun ochilib ketibsiz” “Ingliz tilida chiroyli gapirar ekansiz” “Kiyimingiz chiroyli” kabi o‘zbeklar tomonidan aytiladigan ifodalar va maqtovlarga yaponlar “Yo‘g‘e nimalar deyapsiz”, “Unday holatning o‘zi yo‘q” kabi inkor qiluvchi javoblarni berishlari va hatto xafa bo‘lishlari ham aniqlangan.

Xayr ma‘nosida ruslar kaftini o‘zidan orqaga qilib vertikal holda takror va takror silkitsa, italyanlar kaftini o‘ziga vertikal holatda silkitadilar. Salomlashish jarayonida Yevropa xalqlari hurmat vositasiga Sharq xalqlaridek chuqur urg‘u bermaydi, ya‘ni ularda kattalarga ham, kichiklarga ham bir xil salom berib, bir xil so‘rashishadi.

Millat madaniyatini namoyon etuvchi muhim vositalardan biri salomlashishdir. Muqaddas Qur‘oni Karimda, sahih hadislarda salom berish inson farzlaridan biri ekanligi, uning savobi ochga taom berish bilan teng ekanligi zikr etiladi. O‘zbek millati madaniyatida salomlashishning eng chiroyli ko‘rinishi qo‘lni ko‘ksiga qo‘yib, “Assalomu alaykum” deb, boshni egib salomlashish tahsinga sazovordir. Va albatta, salomlashish davomida ularning yetti avlodidan, echki-ulog‘idan, sigir-



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qo‘ylaridan, hol-ahvol so‘rashadilar. Masalan, “Parvona” spektaklida O‘tkuriy bilan yangasining salomlashishini misol qilib olishimiz mumkin:

–Hay, kuyovjon yaxshimisiz? Uydagilar, amma-xola, tog‘alar, qo‘ni-qo‘shnilar, singillar, jiyanlar, echki-uloq, sigir-qo‘ylar yaxshi yuribdimi

Inglizlarda esa bu holat bir muncha farq qiladi. Chunki ular o‘z yaqinlari bilan ham bu yuqoridagidek salomlashishmaydi.

O‘zbek tilida hurmatning yuksak darajasini, izzat, ikrom ma‘nosini ifodalashda ehtirom so‘ziga murojaat qilinadi. Masalan, “ehtiyom bilan tilga olmoq” iborasi vositasida so‘zlovchining gap ob‘yektiga bo‘lgan yuqori darajadagi hurmatini ifodalaydi. Shuningdek, ushbu ibora tarkibida “ehtiyom” so‘zidan avval zo‘r leksemasining keltirilishi orqali qayd etilgan ma‘noga urg‘u beriladi, kuchaytiriladi. “Ehtiyom” so‘zining aytib o‘tilgan semasi tufayli o‘zbek adabiy tilida maktublarda, shu bilan bir qatorda, mualliflarning avtograflarida “kamoli ehtiyom ila” iborasi faol qo‘llaniladi. Bu ibora forsiy izofa va ila ko‘makchisi yordamida hosil qilingan bo‘lib, yozuvchining “alohida e‘tibori, baland hurmati” ma‘nosini anglatadi. Zero, kamol leksemasining semantik xususiyatiga bog‘liq ravishda ehtiyomning to‘liq, kam-ko‘stsiz, yuqori darajasi ekani tushuniladi.

Hurmat so‘zining ma‘nodoshlaridan bo‘lgan e‘zoz so‘zi “hurmat, izzat” semasi bilan bir qatorda “ardoqlash, qadrlash” ma‘nosida ham kelishi mumkin.

“Izzat” so‘zi esa “kimsaga ko‘rsatilgan yoki kimsa sazovor bo‘lgan hurmat, ehtiyom” ma‘nosini ifodalaydi. Masalan: –Nuri uchun emas, balki qaynona izzati uchun aylanib-o‘rgilib ko‘rishdi (Oybek).

Bundan tashqari “ikrom” leksemasi kitobiy so‘z bo‘lib, hurmat, izzat so‘zlariga xos ma‘noda ishlatiladi.

Adabiyotlarda —lar ko‘plik ma‘nosini ifodalovchi qo‘shimcha sifatida talqin qilinadi. Bunday yondashuv tarixiy etimologik nuqtai nazaridagina to‘g‘ri. Hozirgi til Grammatik sistemasidan kelib chiqsak, yagona —lar affiksi ham mazmunan, ham vazifada mustaqillik kasb etadi. Ana shunday formalardan biri hurmat formasidir. Misollarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hurmat ma‘nosini ifodalovchi —lar alohida affiks deb son kategoriyasi va egalik kategoriyasi sistemasidan tashqarida turuvchi mustaqil forma deb qaralishi lozim.

Badiiy adabiyotlardagi hurmat ifodalovchi vositalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hurmat nafaqat affikslar yordamida, balki bir necha so‘zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan: malikai oliyshoh, inim, zoti oliylari, taqsir, azizam, janoblar



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kabilar. Bunday til vositalaridan mohirona foydalanish insonlar o'rtasidagi mehr—oqibat, samimiy munosabat, axloq—odob me'yorlarini belgilab beradi.

Aytaylik, inson biror daraxt ekkan, hovuz qazigan. O'z bola-chaqalari, yoru birodarlari, qarindosh—urug'lariga tegishli, hech qachon o'lmaydigan yana umri berilganki, shu tufayli u vafot etgan zamonidayoq unutilishga mahkum emas. Mayda, ojiz hasharotlarga, jonivorlarga mehribonlik ham ulug' fazilatdir. Aqalli bir mushukka bo'lsang mehribon, Demak, salomatdir sendagi ibo, deydi Xusrav Dehlaviy.

Tarixdan ota-bobolarimiz yerga tushgan non parchasi, uvog'ini ohista olib, yuz-ko'zlariga surtib, oyoq ostidan chekkaga, qushlar, it-mushuklar yeb ketadigan joylarga ko'tarib qo'yishgan. Obi hayot xususida ham shuni aytishimiz mumkin. Kattadir—kichikdir suvga peshob qilsa, ulug' gunoh sanalib, ko'zi ko'r bo'lib qoladi, deya cho'chishgan. Ko'l, daryo, ariqlarning suvlari shu sababdan ham toza, musaffo, shirin bo'lgan. Demak, atrof-muhimni, bizga berilgan barcha in'omlarni asrash ham hurmatning yuksak ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Имамова Х. Кишилик олмошлари ҳурмат категорияси контекстида (қиёсий аспектда) // <http://www.journal.fledu.uz/>
2. Шарқ донишмандлар ҳикмати. –Т : Шарқ, 2006 126 б
3. Гулямова Ш. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари. Филол.фан.бўйича фал.док-ри. дисс...– Бухоро, 2020. – Б. 54. – 163 б
4. Ҳожиёва.А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясашиши. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 50. – 80 б.
5. Зикриллаев. Ғ.Н. Фельнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. Тошкент, 1990. 163 Б
6. Қодирий. А Ўткан кунлар. –Т... “Навруз”, 2019. 152б
7. Саид Аҳмад. Келинлар кўзғалони. 1970
8. Уйғун. “Парвона” II парда 1933
9. Содиқова Ш. Ўзбек тилида ҳурмат категорияси 2013.

